

MILLIY G'OYANING O'ZBEKISTON DAVLATI MA'NAVIYATI VA IQTISODIYOTIDAGI AHAMIYATI

Rashidova Muslima Alisher qiz

O'zbekiston milliy unversiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti 1-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada milliy g'oyalarning inson hayotidagi o'rni, davlatning, jamiyatning ma'naviy va iqtisodiy rivojlanishidagi muhim vazifalari haqida so'z boradi. Shuningdek O'zbekiston taraqqiyotida milliy g'oyalarning tutgan roli haqida ham aytib o'tiladi. Maqola so'nggida muallifning shaxsiy fikrlari keltiriladi.

Kalit so'zlari: ibtidoiy davrdagi g'oyalar, Zardushtiylik g'oyalari, diniy g'oyalar, ateizm g'oyalar, milliy g'oya, rivojlangan davlatlardagi g'oyalar.

ANNOTATION

This article talks about the role of national ideas in human life, the important tasks of the state and society in the spiritual and economic development. It is also mentioned about the role of national ideas in the development of Uzbekistan. At the end of the article, personal opinions of the author are presented.

Key words: primitive ideas, Zoroastrian ideas, religious ideas, atheism ideas, national idea, ideas in developed countries.

Jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda, dunyoning har burchagida turli g'oyalar va mafkuralar hukum surmoqda. XXI asrda dunyoda qurollar jangi emas, g'oyalar jangi yuz bermoqda. Turli tuman propagandalar dunyo xalqlariga raxna solib kelmoqda. Mana shunday davrda g'oyalar hujumidan saqlanishning yagona yo'li milliy g'oyadir. Zero bugungi kunda jaholatga qarshi ma'rifat, g'oyaga qarshi g'oya bilan kurashish lozimdir. O'zbekiston ham turli xil yod g'oyalarga qarshi o'z milliy g'oyasi bilan doimo kurash olib borgan. Buni mamlakat hududida uzoq davom etgan g'oyala evolyutsiyasi orqali ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston hududida ilk g'oya ko'rinishlari tabiat va atrof muhit bilan bog'langan. O'sha davr odamlarining atrof-muhitga qiziqishi turli marosimlarda rasmlarda o'z aksini topib, ularning mafkura va g'oyalari ham shu asnoda tabiat bilan rivojlanib borgan. O'zbekistondagi ilk mafkura va g'oya ko'rinishlarining yorqin misoli Teshiktosh g'oridan topilgan "Kramanyon odami"ning dafin etilishiga borib taqaladi. Undan keyingi davrlarda ham yurtimizning Zarautsoy, Siypantosh, Sarmishsoy, Bironsoy va Ilonsoy kabi hududlaridan muhim manba bo'lmish qoyatosh rasmlari topilgan. Qoyatosh rasmlarida aks etgan manzaralar orqali biz tosh davri odamlarining mafkura va g'oyalari qanday ekanligini bilib olishimiz mumkin. Tan

olish o'rinliki tosh asri insonlarining g'oyalari jon va ruhlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, fetishizm, animizm, totemizm mafkuralari asosiy o'rin egallagan. Ma'lumki, qadimgi ajdodlarimiz o'zlarining tabiat oldidagi o'zliklarini juda chuqur his etganlar. Mazkur o'zlik ularda tabiat kuchlaridan qo'rqish va ulardan umid qilish hissini rivojlantirgan¹. Natijada ajdodlarimiz ongida tabiatdagi narsa va hodisalarni yaxshilik va yomonlik keltiruvchi timsollarga ajratgan holda, idrok etish rivojlangan. Inson tafakkuridagi bu jarayon, o'z navbatida, uning mahsuli bo'lgan g'oyalar va kategoriyalarda o'z ifodasini topgan².

Unda keyingi davrlarda esa yurtimizdagi asosiy g'oya o'rnini Zardushtiylik g'oyasi egalladi. Darhaqiqat, «Ilgari tor doirada hayot kechirgan, turli totemlar, fetishlarga sig'ingan, animistik qarashlari ham xilma-xil tusda bo'lgan elatlar, xalqlarning katta hududlarda birgalikda hamkor-hamnafas bo'lib yashashlari uchun yangi g'oyalar ilgari surila boshlandi. Bunday g'oya, jumladan, Turonda, to'g'rirog'i, O'zbekiston hududida Zardushtiylik nomi bilan yuzaga keldi».³ Zardushtiylik g'oyalari qadimgi davrning ilk dualistik g'oyalaridandir. Bu g'oyalar negizida ezgulik va yovuzlik o'rtasida o'zaro kurash ketadi. Jumladan ezgulik xudosi Axura Mazda va yovuzlik xudosi Axirman o'rtasida doimiy kurash ketadi. Yana shuni ta'kidlash kerakki, Zardushtiylikning bosh g'oyasi tom ma'noda yaxshilikka yo'g'rilgan bo'lib, u ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amaldan iboratdir. Zardushtiylik g'oyasi o'sha davridayoq insonlarni birlikka, ezgulikka va atrof-muhitga do'stona munosabatda bo'lishga da'vat etgan hamda bunga erishgan.

VIII asrda esa Movarounnahda islom g'oyalari hukm surdi. Bu g'oyagacha vatanimizning turli joylarida turlicha g'oyalar hukm surgan bo'lsa, ayna islom dini butun mamalakatga yoyildi. Bu din natijasida keyinchalik vujudga kelib keng yoyilgan tasavvuf va tariqat g'oyalari, ularning asosida yotgan komil inson g'oyasi insonlarni birlashishga, nafsni yengishga, ilm olishga chorladi. Yana shuni ta'kidlash joizki, aynan islom dini hukmronligi davrida Movarounnahda IX – XII asrlarda uyg'onish davrining sodir bo'lishi ham bejis emas, aslida. Chunki islom dini bag'rikeng din bo'lib, insonlarni diniy ilm bilan bir qatorda dunyoviy ilmlarni ham egallashga chorlaydi. Shundan bo'lsa kerak, IX – XII asrlarda Imom al Buxoriy, At- Termiziy, Farg'oniy, Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Motrudiy singari islom olamida va jahon ilmfanida yetakchi o'rinda turuvchi allomalar yetishib chiqishdi. Shuningdek, IX asrda yurtimizda “Qo'shhaqiqat” g'oyasi ya'ni mutaziliylik va mutakallimlik g'oyalarining kurash davri ham bo'ldi. Biroq har ikkala g'oyaning tag zamirida ezgulik yotgani holda

¹ Tursunov Q.M., Qo'ziboyev J., Hamidov A., Tursunov Y.Q. Din va hurfikrlilik tarixi asoslari. Farg'ona : 2000. 13-bet

² Mallayeva E.M. Fuqarolarning siyosiy madaniyatini rivojlantirishning mafkuraviy omillari Siyosiy fanlar buyicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya Toshkent 2020 41-bet

³ Karimov I. Imon va maslak tarixi. Toshkent: 2010. Yangi nashr., 42-bet.

ikkalasi ham bir-biriga to'sqinlik qilmagan holda rivojlandi va jamiyatni ham rivojlantirdi.

XIX asrda Markaziy Osiyoga Chor Rossiyasining mustamlakachi mafkurasi kirib keldi. Bu mustamlakachi mafkurasining g'oyalari jamiyatni parokandalikka olib keldi, natijada O'rta Osiyo aholisi qullikka tushib qoldi. To'g'ri yurtimizda bu g'oyaga qarshi ma'rifatchilik, vatanparvarlik g'oyalari mavjud edi, biroq u mustabit tizim tomonidan bostirildi. O'sha davrda vatanning asl farzandlari o'z ma'rifatparvar g'oyalarini jamiyatda yoyishga, yoshlarni ilmi qilishga o'z jonlarini tikib bo'lsada, bor kuchlari bilan harakat qilishdi. Bu yo'lda garchan qurbon bo'lishsada, Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Fitrat, Abdulla Avloniy, Cho'lpon kabilar o'z davrida qilgan jasoratlari uchun mangu barhayotdirlar.

SSSR davlatining bizga yetkazdan katta zararlaridan uning ta'sirida yurtimizga turli yod g'oyalar olib kelinib, xalq ongiga majburan sindirilish jarayonlari sodir bo'lishidir. Ayniqisa kommunizm va ateizm g'oyalarini singdirishda bolsheviklar bor kuch-g'ayratlarini sarfladilar. Ammo bu g'oyalar asrlar davomida xalqimiz onggida shakllangan g'oyalarga va o'zbek xalqi turmush tarziga zidligi natijasida xalq va hokimyat o'rtasida tinimsiz nizolar bo'lib turishiga olib keldi. Oxir-oqibatda bu urushlar 1991-yil O'zbekistonning mustaqilligi bilan nihoyasiga yetdi.

Mustaqillikni endi qo'lga kiritgan O'zbekiston oldida asosiy vazifa sifatida milliylikimizga yo'g'rilgan, o'zbek qadriyatlari aks etgan milliy g'oyani yaratish turardi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan milliy istiqlol mafkurasi yaratildi. U o'z ichiga bir nechta g'oyalarni qamrab oldi. Jumladan milliy istiqlol mafkurasining bosh g'oyasi "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish" bo'lsa, bundan tashqari u o'z tarkibiga "Vatan ravnaqi", "Yurt tinchligi", "Xalq farovonligi", "Komil inson", "Ijtimoiy hamkorlik", "Millatlararo totuvlik" va "Dinlararo bag'rikenglik" singari g'oyalarni ham qamrab olgandi. Bu g'oyalar atrofida necha yillar mustabit tuzum ta'sirida yashagan xalq birlashdi. To'g'risini aytadigan bo'lsak, XX asrning 90-yillari xalqimiz uchun eng og'ir damlar bo'ldi. Bu iqtisodiyotda ham siyosatda ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Milliy istiqlol g'oyasi ostida birlashgan xalq bunday qiyin damlarni o'z sabr matonati bilan yengib o'tdi. Bosh g'oyani qalbiga jo qilgan xalqning sa'y-harakati bilan davlat iqtisodiyoti asta-sekinlik bilan bo'lsada rivojlana boshladi. O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan eksport, import masalalarida bemalol hamkorlikni yo'lga qo'ydi.

2017-yildan boshlab O'zbekistoda taraqqiyotning yangi bosqichi boshlandi. O'zbekiston o'zining uzoqni ko'zlagan taraqqiyot strategiyalarini ishlab chiqdi. Bu strategiyalarga monand ravishda bosqichma-bosqich barcha sohalarda o'zgarishlar, o'sishlar yuz berdi. Ta'kidlash o'rinliki, taraqqiyot strategiyalarida va davlatimiz rahbarining har bir chiqishlarida milliy g'oya va ma'naviyat masalasiga katta e'tibor berilgan. Hozirda yurtimizda vatan ravnaqi va xalq farovonligini ko'zlovchi "Sifatli

ta'lim", "Uchinchi Renessans", "Xalq manfaatlari hamma narsadan ulug' " kabi g'oyalar mavjud bo'lib, ularning barchasi "Yangi O'zbekiston" g'oyasi ostida birlashgan. Bugungi kunda O'zbekistondagi g'oyalarni asosiy zamirida inson qadri va farovon kelajagi yotadi. Zotan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston mafkurasining asosiy g'oyasi – ezgulik, odamiylik gumanizm g'oyasi bo'ladi"⁴, deya ta'kidlashlari ham yurtimizda insonning hayoti va qadr-qimmatini nechog'lik ulug' ekanligidan darak beradi. Bu g'oyalar esa xalqimizning qalbi va shuuridan chuqur joy olgan bo'lib, bunday bunyodkor g'oyalar natijasida o'zbek xalqining har bir a'zosi vatan va uning ravnaqi uchun hatto jonini ham fido qilishga tayyordir.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, g'oyalar jamiyat rivojida eng muhim vositadir. Aynan g'oyalar xalqni birlikka chorlab, bir maqsad yo'lida harakat qilishga undaydi. Jahondagi rivojlangan davlatlar tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Xitoy davlati kommunistik va Konfutsiy g'oyalarini bosh g'oyasiga aylantirgan holda, o'z xalqini bir maqsad, bir g'oya ostida birlashtirdi va hozirgi taraqqiyot bosqichiga chiqdi. Amerka Qo'shma Shtatlari esa Buyuk Amerka g'oyasini butun mamlakat bo'ylab yoyishga katta sarf-haraj qilgan va bu ham o'z samarasini ko'rsatdi. G'oyalar davlatning barcha sohalariga o'z ta'sirini ko'rsatishini tarixning o'zi allaqachon isbotlab qo'ygan.

Xulasa o'rnida shuni aytish joizki, ilk sivilizatsiya davridan boshlab, to hozirgi davrgacha g'oyalar insoniyat bilan yashab kelmoqda. Ular dastlab judda sodda ko'rinishda bo'lgan bo'lsada, o'z davrida haqiqiy inqiloblarga sabab bo'lgan. O'zbekiston davlatining evolyutsiyasida ham turli g'oyalar o'rin almashishi, birining o'rnini ikkinchisi egallashi oqibatida davlat va jamiyat ham ma'naviy ham iqtisodiy jihatdan o'sib bordi. Yana shuni ta'kidlash o'rinliki, g'oya ekanda deb duch kelgan, o'zida chuqur ma'no jamlamagan, xalq manfaatlarini ko'zlamagan g'oyani davlat darajasida targ'ib qilish davlat va xalq uchun eng katta yo'qotishlarni olib keladi. Birgina misol, SSSR va AQShlarining o'zaro vayronkor g'oyalari sabab butun Koreya davlati ikkiga bo'lindi. Bir millat, bir tarix, bir til va bir xil an'analarga ega davlat hozirda ikki xil nom ostida ikkiga bo'linib, bir-biriga dushman sifatida yashab kelmoqda. Shunday ekan yuqoridagi misoldan o'rinli xulosa chiqargan holda davlatimiz ham har tomonlama puxta o'ylangan xalq ma'naviyati va jamiyat taraqqiyoti rivojiga katta hissa qo'shadigan, o'zida xalq manfaatlarini va sifatli ta'limni, adolatli boshqaruv va korrupsiyasiz jamiyatni mujassam etgan g'oyalarni yaratish va xalq orasida targ'ib qilishga harakat qilmoqda hamda bunday harakatlarni kelgusida yanada jadallashtirishni zamonamizning o'zi talab qilmoqda. Zero hozirda butun yer

⁴ «Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasini ezgulik, odamiylik, gumanizm bo'ladi» O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021 yil 19 yanvar kuni o'tkazilgan videoselektor yigilishidagi nutqi // <https://xs.uz> (murojaat qilingan sana, 2021 yil 11 fevral)

yuzini qamrab olishga intilayotgan yod, vayronkor g'oyalardan qutulishning birdan-bir yo'li milliy g'oyalarimizni rivojlantirish va uning targ'ibotini zamonaga mos ravishda yangilashdir. Shundagina biz milliylikini, vatanparvarligini o'zida saqlab qolgan, fuqarolik jamiyatiga ega rivojlangan davlatga aylanishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. «Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm bo'ladi» O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021 yil 19 yanvar kuni o'tkazilgan videoselektor yigilishidagi nutqi // <https://xs.uz> (murojaat qilingan sana, 2021 yil 11 fevral)
2. D.M.Mamatqulov "Mafkuraviy jarayonlar transformatsiyasi" T.: "Toshkent" 2023-yil
3. Tursunov Q.M., Qo'ziboyev J., Hamidov A., Tursunov Y.Q. Din va hurfikrlilik tarixi asoslari. Farg'ona : "Farg'ona" 2000. 13-bet
4. Mallayeva E.M. Fuqarolarning siyosiy madaniyatini rivojlantirishning mafkuraviy omillari Siyosiy fanlar buyicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya T.: "Toshkent" 2020-yil
5. Karimov I. Imon va maslak tarixi. Toshkent: "Yangi nashr" 2010-yil